

TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASI XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Saidov Behruz Ikrom o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

bexruzs084@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1676003>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekistonda tijorat banklari faoliyatida Islom moliyasi xizmatlarini joriy etish va ularni rivojlanterish yo‘llari har tomonlama tahlil qilinadi.

Islom moliyasi shariat tamoyillariga asoslangan bo‘lib, foizsiz moliyalashtirish, halol investitsiya va tenglikka asoslangan sheriklik munosabatlarini ilgari suradi. Maqolada ushbu xizmatlarning asosiy turlari – murabaha, mudaraba, musharaka, ijara va sukuk instrumentlari keng o‘rganilib, ularning tijorat banklari faoliyatiga integratsiyalashuvi amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot davomida mamlakatda mavjud normativ-huquqiy baza, infratuzilmaviy imkoniyatlar va moliyaviy savodxonlik darajasi chuqur tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlangan. Shuningdek, O‘zbekistonda Islom moliyasiga oid xizmatlarni kengaytirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar, tartibga soluvchi mexanizmlar va xalqaro tajribalar asosida ilg‘or takliflar ishlab chiqilgan. Muallif Islom moliyasining iqtisodiy inklyuzivlik, moliyaviy xavfsizlik va halollik tamoyillariga asoslangan holda milliy moliya tizimini diversifikatsiyalashdagi o‘rni va ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: islom moliyasi, tijorat banklari, murabaha, mudaraba, musharaka, ijara, sukuk, shariat tamoyillari, halal moliyalashtirish, O‘zbekiston moliya tizimi, foizsiz bank xizmatlari, moliyaviy inklyuziya.

Abstract. This scientific article comprehensively analyzes the ways of introducing and developing Islamic finance services in the activities of commercial banks in Uzbekistan. Islamic finance is based on the principles of Sharia and promotes interest-free financing, honest investment and partnership relations based on equality. The article extensively studies the main types of these services - murabaha, mudaraba, musharaka, ijara and sukuk instruments, and covers their integration into the activities of commercial banks in a practical way. During the study, the existing regulatory framework, infrastructural capabilities and the level of financial literacy in the country were thoroughly analyzed, and existing problems were identified. Also, strategic directions for expanding Islamic finance services in Uzbekistan, regulatory mechanisms and advanced proposals based on international experience were developed. The author justifies the role and importance of Islamic finance in diversifying the national financial system based on the principles of economic inclusion, financial security and honesty.

Keywords: islamic finance, commercial banks, murabaha, mudaraba, musharaka, ijara, sukuk, Sharia principles, halal financing, financial system of Uzbekistan, interest-free banking services, financial inclusion.

Kirish: Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy sektorni diversifikatsiyalash va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Ayniqsa, foizsiz moliyalashtirish asoslariga tayanadigan va shariat tamoyillariga muvofiq faoliyat yuritadigan Islom moliyasi xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Dunyoning ko‘plab musulmon aholisi zikh yashaydigan mamlakatlarda Islom moliyasi keng rivojlangan bo‘lib, u nafaqat diniy asosga, balki halollik, risklarni adolatli taqsimlash va iqtisodiy barqarorlik kabi universal prinsiplarni o‘zida mujassam etgan. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda dastlabki tashabbuslar boshlangan bo‘lsa-da, tijorat banklarida Islomiy moliyaviy xizmatlar hali keng joriy etilmagan. Shu boisdan, mavjud huquqiy va institutsional baza, tijorat banklarining texnik imkoniyatlari, aholining savodxonlik darajasi va bank mahsulotlari tizimi doirasida Islom moliyasini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada mazkur jarayonning dolzarbligi, tijorat banklari uchun strategik imkoniyatlari hamda rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Islom moliyasi sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu yo‘nalishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganishga xizmat qilmoqda. Jumladan, O‘zbekistonlik tadqiqotchi Abduraxmanova G.G. (2021) o‘zining ilmiy ishida Islom moliyasining normativ-huquqiy asoslarini shakllantirish zaruratini asoslab beradi.

Uning fikricha, mavjud bank tizimi asosan an’anaviy foizli moliyalashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu Islom moliyasi tamoyillariga zid keladi. Shuningdek, u aholining moliyaviy savodxonligi yetarli emasligi sababli Islomiy moliyaviy mahsulotlarga nisbatan talab sustligicha qolayotganini ta’kidlaydi. Bu esa mazkur yo‘nalishni rivojlantirishda institutsional va axborot infratuzilmasini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shunga o‘xhash yondashuv Mamatqulov B.B. (2023) tomonidan ham ilgari surilgan.

Uning tadqiqotida O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatida Islom moliyasi xizmatlarini tatbiq etish bosqichlari aniq ifodalangan. Muallifning fikricha, murabaha, mudaraba va sukuk kabi asosiy instrumentlar bank xizmatlarining diversifikatsiyasini ta’minlashi va yangi mijoz qatlamlarini jalg etishi mumkin. Mamatqulov ushbu vositalarning milliy bank tizimiga qanday moslashtirilishi mumkinligi bo‘yicha konseptual yondashuv ishlab chiqqan va bu amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqa bir tadqiqotchi — Ibragimova Z.R. (2020) o‘z ishida tijorat banklarining mijozlar ishonchini oshirishda Islomiy moliyaviy vositalarning samaradorligini ta’kidlaydi. U, ayniqsa, halal moliyalashtirish konsepsiysi orqali aholining bank tizimiga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirish mumkinligini isbotlagan. Uning fikricha, bu sohani rivojlantirish uchun shariatga muvofiq mahsulotlar yaratish bilan birga, malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish ham muhim omildir.

Rossiyalik olim Усманов Р.П. (2019) esa o‘z ilmiy izlanishlarida Rossiyada Islom moliyasi amaliyotini o‘rganib, bu modelning an’anaviy foizli moliya tizimi bilan qanday integratsiyalashishi mumkinligini tahlil qiladi. U foizsiz moliyalashtirish modeli shunchaki diniy asosdagi yondashuv emas, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydigan zamonaviy alternativ moliyaviy tizim ekanini isbotlaydi. Muallifning fikricha, Islom moliyasini qonuniy jihatdan tan olish Rossiyada moliyaviy sektorning yangi bozor segmentlarini ochishga xizmat qilishi mumkin.

Karimov A.A. (2022) esa o‘z tadqiqotida Islom moliyasi orqali aynan kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish masalasiga urg‘u beradi.

Uning fikricha, tijorat banklari Islomiy moliyaviy xizmatlar orqali kredit riskini mijoz bilan teng taqsimlab, iqtisodiyotning real sektoriga foydali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, halol sheriklik asosida ishlab chiqilgan mahsulotlar kichik biznesning resurslarga bo'lgan ehtiyojini samarali qondiradi.

Mazkur yo'nalishdagi nufuzli xalqaro tadqiqotlar qatorida Habib Ahmed (Saudiya Arabiston, 2018) tomonidan olib borilgan fundamental izlanishlar alohida e'tiborga loyiq. U Islom banklarida shariat kengashlarining faoliyatini, ularning qarorlar qabul qilishdagi mustaqilligi va nazorat mexanizmlarini chuqur o'rgangan. Muallifning ta'kidlashicha, Islom moliyasi xizmatlarining muvaffaqiyati shariatga muvofiqlik darajasiga bevosita bog'liq. Shu boisdan, har bir bankda mustaqil va malakali shariat kengashi faoliyati yo'lga qo'yilishi zarur.

Islom moliyasi bo'yicha xalqaro miqyosdagi yetakchi olimlardan biri — M. Kabir Hassan (AQSh, 2020) o'zining fundamental tadqiqotlarida Islom moliyasining global moliya tizimidagi o'rnni chuqur tahlil qilgan. U tijorat banklari uchun Islomiy instrumentlar asosida barqaror va xavfsiz moliyaviy modelni ishlab chiqadi. Xususan, murabaha va musharaka asosida tashkil etilgan bank operatsiyalarining foizli kreditlash tizimiga nisbatan kamroq riskga ega ekanligini ilmiy asoslar bilan isbotlagan. Kabir Hassan nazarida, ushu vositalar moliyaviy inqirozlar davrida tijorat banklarini iqtisodiy zARBALARDAN himoya qila oladi.

Yevropalik olim Volker Nienhaus (Germaniya, 2017) esa Islom moliyasi va Yevropa bank tizimi o'rtasidagi integratsiya imkoniyatlarini o'rgangan. U o'z tadqiqotlarida Islomiy moliyalashtirish vositalarining riskga asoslangan va aktiv bilan ta'minlangan yondashuvi Yevropa bank amaliyotiga mos tushishini ta'kidlaydi. Ayniqsa, u sukuk va musharaka mexanizmlarining shaffofligi va adolatli foyda-zarar taqsimoti tamoyillarining G'arbiy moliya tizimida qo'llanilishi mumkinligini asoslab bergen. Bu fikrlar Islom moliyasining universalligini ko'rsatadi.

Ruslan Sayfulin (Qozog'iston, 2021) tomonidan olib borilgan tadqiqot Markaziy Osiyo kontekstida alohida ahamiyatga ega. U Islom moliyasi institutlarining infratuzilmaviy va huquqiy asoslarini tahlil qilib, ayniqsa Qozog'istondagi tajribalar asosida Islom bankchiligining iqtisodiy inklyuziyadagi rolini ochib beradi. Sayfulinning fikricha, aholining katta qismi rasmiy bank xizmatlaridan foydalana olmasligi, Islom moliyasining soddalashtirilgan va adolatli mexanizmlari orqali bartaraf etilishi mumkin. Bu esa moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirishga xizmat qiladi.

Nurul Huda (Malayziya, 2019) esa Islom banklarini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalar orqali ommalashtirish yo'nalishida ilg'or fikrlarni ilgari suradi. U Malayziya tajribasi misolida Islomiy moliyaviy xizmatlarni mobil ilovalar, onlayn platformalar va fintech vositalari orqali ko'proq mijozlarga yetkazish mumkinligini isbotlaydi. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadi, raqamli transformatsiya orqali foizsiz bank mahsulotlarini tez, qulay va ishonchli shaklda taqdim etish mumkin bo'ladi.

Yevropada Islom moliyasini chuqur o'rgangan olimlardan biri Rodney Wilson (Buyuk Britaniya, 2021) hisoblanadi. U o'z asarlarida Islom moliyasining Yevropa moliya tizimidagi integratsiya jarayonini, ayniqsa shariat tamoyillari va davlat qonunchiligi o'rtasidagi muvozanatni o'rganadi. Shuningdek, u musulmon aholisi zikh yashaydigan hududlarda Islomiy moliyaviy xizmatlarga ehtiyojning ortib borayotganini asoslab beradi.

Uning tahlillariga ko‘ra, Islom banklari Yevropada ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi subyekt sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda.

So‘nggi yillarda mazkur sohaga katta hissa qo‘sghan yana bir olim — Umar A. Oseni (Nigeriya–Malayziya, 2023) bo‘lib, u Islom moliyasining shartnoma-huquqiy asoslarini chuqur tahlil qilgan. Xususan, sukuk emissiyasi, mudaraba shartnomalari va shariatga muvofiqlik standartlari bo‘yicha banklar uchun amaliy yo‘riqnomalar ishlab chiqqan. Oseni shartnoma tuzishda halollik, aniqlik va adolat tamoyillarini kuchaytirish Islomiy moliyaviy tizimning asosiy ustunliklaridan biri ekanini ta’kidlaydi. Uning ishlari tijorat banklarining Islom moliyasini huquqiy jihatdan puxta asoslangan tarzda joriy etishida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Islom moliyasi sohasida so‘ngi yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu yo‘nalishning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Tadqiqotchilar Islom moliyasining foizsiz, halol va sheriklikka asoslangan tamoyillari tijorat banklari faoliyatida moliyaviy barqarorlik, ijtimoiy adolat va iqtisodiy inklyuziyani ta’minalashda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaganlar. O‘zbekistonlik olimlar milliy bank tizimiga moslashuv, huquqiy asos va kadrlar salohiyati muammolariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, xalqaro tadqiqotchilar Islom moliyasining Yevropa, Osiyo va AQShdagi integratsiyalashuvi, raqamlashtirish imkoniyatlari va shariatga muvofiqlik mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan. Ushbu adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida Islomiy moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish — bu nafaqat diniy talablarni qondirish, balki zamonaviy va barqaror moliyaviy tizimga yo‘l ochuvchi strategik yo‘nalishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Islom moliyasi xizmatlarining tijorat banklari faoliyatidagi o‘rni va ularni rivojlantirish yo‘llarini o‘rganish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, mavzuga oid normativ-huquqiy hujjatlar, bank amaliyoti, xalqaro standartlar va shariat tamoyillariga asoslangan konseptual yondashuvlar tahlil qilindi. Normativ tahlil orqali Islom moliyasining mavjud qonunchilik doirasida qanday asoslanayotgani, tijorat banklari faoliyatiga integratsiyalashuvi uchun qanday huquqiy bazalar zarurligi aniqlashtirildi.

Tadqiqotda sifatli metodlardan ham foydalaniildi. Jumladan, yarimstrukturaviy intervyular orqali bank xodimlari, soha mutaxassislari va shariat kengashi a’zolari fikrlari o‘rganilib, muammolar va imkoniyatlar bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu yondashuv Islom moliyasining milliy bank amaliyotida qanday qiyinchiliklarga duch kelayotgani va qanday sharoitlarda muvaffaqiyatli joriy etilishi mumkinligini aniqlashga yordam berdi.

Metodologik yondashuvning asosiy ustunligi shundaki, u nafaqat nazariy modellarni, balki amaliy natijalarni ham o‘zida mujassam etadi. Ko‘p manbali, sifatli va miqdoriy yondashuvlar orqali tadqiqot holislik, aniq dalillarga asoslanish va amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari asosida tijorat banklari uchun Islom moliyasi xizmatlarini joriy etishning maqbul yo‘llari, institutlararo hamkorlik modeli va shariatga muvofiqlikni ta’minlovchi tizimli yondashuvlar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Islom moliyasi xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj O‘zbekistonda izchil ortib bormoqda. 2020–2024-yillar oraliq‘ida bu xizmatlar hajmi va foydalanuvchilar soni sezilarli darajada ko‘tarilgan. Quyidagi Jadval 1da UNDP va Imamnazarov 2020 tadqiqoti, Samarqand maktabi va boshqa manbalardan olingan aniq raqamlar asosida umumiy hajm va ishtirokchilik haqidagi tendensiya ko‘rsatilgan.

1-jadval

Islom moliyasi xizmatlari o'sish tendensiyasi (2020–2024)

Yil	Hajm (mlrd so'm)	Foydalanuvchilar (%)	Qolmagan banklardagi talab (%)
2020	150	30 % (nomigarki)	56 % (shariat sabab)
2021	275	37 %	54 %
2022	490	42 %	52 %
2023	815	48 %	49 %
2024	1 130	53 %	46 %

Manba: <https://bank.uz/ma'umotlari-asosida-muallif-ishlanmasi>.

2020–2024-yillar oralig'ida O'zbekistonda Islom moliyasi xizmatlariga talab va faoliyat hajmi izchil o'sib borgan. 2020-yilda 150 mlrd so'mlik Islomiy moliyalashtirish hajmi qayd etilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilda 1,13 trln so'mga yetgan. Bu — 5 yilda qariyb 7,5 barobar o'sishni anglatadi. Bu o'sish mamlakatda aholining foizsiz moliyalashtirishga bo'lgan qiziqishi, tijorat banklarining Islomiy xizmatlar segmentiga kirib kelishi va davlat tomonidan ushbu sohani qo'llab-quvvatlash strategiyalari bilan bog'liq.

Jadvaldagi "Foydalanuvchilar (%)" ustunidan ko'rinish turibdiki, 2020-yilda Islom moliyasi xizmatlaridan foydalanuvchilar ulushi taxminan 30 foizni tashkil etgan bo'lsa (asosan nomigarki shaklda), bu raqam 2024-yilda 53 foizga yetgan. Bu degani, aholining yarmidan ko'pi hozirda shariatga muvofiq moliyaviy xizmatlarga intilmoqda. Bunday o'sish Islomiy moliyalashtirishga bo'lgan ishonchning ortganligini va ushbu xizmatlar foydalanuvchilar tomonidan tobora faol tanlanayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, "Qolmagan banklardagi talab (%)" ustunida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda Islom moliyasi xizmatlari mavjud bo'limgan tijorat banklarining 56 foiz foydalanuvchilari aynan shariatga zid amaliyotlar sababli bu xizmatlardan voz kechgan. 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 46 foizga tushgan, ya'ni Islomiy moliyalashtirish xizmatlari asta-sekin kengayib, shariatga muvofiq xizmatlarsiz qolgan mijozlar soni kamaymoqda.

Mazkur statistik tendensiyalar Islom moliyasining O'zbekiston bank sektoridagi strategik o'rnini mustahkamlayotganini ko'rsatadi. Moliyaviy xizmatlar diversifikatsiyasi, aholining diniy-axloqiy qadriyatlariga mos yondashuv, hamda shariat asosida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish orqali tijorat banklari mijozlar bazasini kengaytirishga erishmoqda. Bu holat Islom moliyasining nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy samaradorlik jihatdan ham dolzarb va istiqbolli yo'nalish ekanini tasdiqlaydi.

2-jadval

Xizmat turlari bo'yicha hajm va mijoz qiziqishining taqsimlanishi (2024)

Xizmat turi	Hajm (mlrd so'm)	Bozor ulushi (%)	Mijoz qiziqishi (%)
Murabaha	820	72 %	75 % jismoniy shaxslar
Ijara	145	13 %	61 % yuridik shaxslar
Mudaraba	72	6 %	52 % kichik va o'rta bizneslar
Musharaka	50	4 %	47 % agrova ishlab chiqaruvchilar
Sukuk	43	3 %	38 % institutsional investorlar

Manba: <https://bank.uz/ma'umotlari-asosida-muallif-ishlanmasi>.

2024-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan Islom moliyasi xizmatlari ichida murabaha yetakchi o‘rinni egallab turibdi. Ushbu vosita orqali 820 mlrd so‘mlik moliyalashtirish amalga oshirilgan bo‘lib, umumiy Islomiy moliya bozorining 72 foizini tashkil qilmoqda. Murabahaning shariat tamoyillariga to‘liq mosligi, soddaligi va an’anaviy kreditlashga alternativligi uni ayniqsa jismoniy shaxslar (75%) orasida eng ko‘p talab qilinadigan moliyaviy vositaga aylantirgan. Bu xizmat ko‘pincha avtomobil, iste’mol mollari va uy-joy xaridlarida qo‘llaniladi.

Ijara moliyaviy instrumenti ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u bozorning 13 foizini tashkil etmoqda. Bu vosita asosan yuridik shaxslar (61%), ya’ni korxonalar tomonidan asosiy vositalarni (uskunalar, transport vositalari) ijaraga olishda qo‘llaniladi. Sharhnomaviy ijaraning shariatga mos shaklda taklif qilinishi, aktiv asosida moliyalashtirishni talab qilishi bu vositani moliyaviy xavfsizlik nuqtai nazaridan jozibador qilmoqda. Ijaraning iqtisodiy samaradorligi korxonalar uchun investitsion xarajatlarni kamaytirish va likvidlikni saqlab qolishda muhim rol o‘ynamoqda.

Mudaraba va musharaka vositalari, garchi umumiy bozor ulushi nisbatan kichik bo‘lsa-da (mos ravishda 6% va 4%), ular Islomiy moliyaning klassik sheriklik tamoyillarini aks ettiradi.

Mudaraba vositasi asosan kichik va o‘rta biznes subyektlari (52%) tomonidan foydalanilmoqda, chunki bu modelda bir tomon kapital, ikkinchisi esa mehnat yoki g‘oya bilan ishtiroy etadi. Musharaka esa agrova ishlab chiqaruvchilar (47%) orasida o‘z o‘rnini topmoqda, chunki bu model ikki tomonning ham kapital bilan qatnashishini talab etadi va foyda hamda risklar teng taqsimlanadi. Bu esa moliyaviy sheriklikni rivojlantirish uchun barqaror asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sukuk — shariatga muvofiq obligatsiya vositasi bo‘lib, 2024-yilda 43 mlrd so‘mlik hajm bilan bozorning 3 foizini tashkil etgan. Uning asosiy foydalanuvchilari sifatida institutsional investorlar (38%), xususan pensiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari va yirik investitsiya tashkilotlari qayd etiladi. Sukuk vositasi real aktivlar bilan ta’minlangani va foiz asosidagi an’anaviy obligatsiyalarga muqobil shaklda taklif etilgani sababli, katta hajmli va uzoq muddatli investitsiya loyihibalarini moliyalashtirish uchun maqbul instrument hisoblanadi. Kelajakda sukuk bozorini rivojlantirish orqali davlat va yirik xususiy sektor loyihibalarini halol va barqaror moliyalashtirish imkoniyati kengayadi.

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari uchun Islom moliyasi instrumentlarini kengaytirish — nafaqat diniy talablarni qondirish, balki aholi va tadbirkorlik sub’yektlari uchun moliyaviy inklyuziyani oshirish, barqaror moliyaviy inkluziya yaratish va raqobatbardosh yangi bozor segmentlarini shakllantirish yo‘lidir.

Muhokama: O‘zbekistonda Islom moliyasi xizmatlarining joriy etilishi va rivojlanishi moliyaviy tizimni diversifikatsiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Islomiy moliyalashtirish instrumentlari — ayniqsa murabaha, ijara, mudaraba va musharaka kabi vositalar — nafaqat diniy talablarni hisobga olgan holda moliyalashtirishni ta’minlaydi, balki an’anaviy kredit tizimlarining ayrim zaif jihatlarini ham muvozanatlaydi.

Shariatga asoslangan yondashuv, aktiv bilan ta’minlangan operatsiyalar va foyda/risk taqsimoti tamoyillari orqali Islom moliyasi tijorat banklari uchun barqaror, xavfsiz va axloqan maqbul moliyaviy yechimni taklif qilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston bank sektorida Islom moliyasingin amaliy joriy etilishi bir qancha tizimli to‘siqlarga duch kelmoqda. Avvalo, mamlakatda Islom moliyasi uchun maxsus qonunchilik mavjud emas, banklar ushbu xizmatlarni mavjud umumiyligi qonunlari asosida amalga oshirishga majbur. Bu esa murabaha yoki mudaraba kabi bitimlarni huquqiy jihatdan to‘g‘ri shakllantirishda xavf tug‘diradi. Shariat kengashlarining institutsional maqomi, ularning mustaqilligi va vakolatlari to‘liq aniqlanmagan. Bundan tashqari, tijorat banklarida Islom moliyasi bo‘yicha yetarli darajada malakali mutaxassislar soni cheklangan.

Muhokama qilinayotgan yana bir muhim jihat — mijozlar segmentining xilma-xilligi va bu xizmatlarga bo‘lgan turlicha ehtiyojidir. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, murabaha xizmatlaridan asosan jismoniy shaxslar, ijara xizmatlaridan esa ko‘proq yuridik shaxslar foydalanmoqda. Mudaraba va musharaka vositalari esa ko‘proq kichik biznes va kooperatsiya asosidagi loyihibar uchun mos keladi. Shuningdek, sukuk instrumentlari institutsional investorlar uchun istiqbolli yo‘nalish sanaladi. Bu esa tijorat banklarining har bir mijoz segmentiga mos mahsulot dizaynnini ishlab chiqishi va bozorni to‘g‘ri segmentatsiyalashi zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda, Islom moliyasi xizmatlarini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu yondashuv, birinchidan, maxsus qonun va normativ hujjatlarni ishlab chiqishni; ikkinchidan, bank xodimlari uchun malaka oshirish dasturlarini joriy etishni; uchinchidan, aholining Islom moliyasi bo‘yicha moliyaviy savodxonligini oshirishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, tijorat banklari Islom moliyasi bo‘yicha raqamli platformalarni ishlab chiqish va mobil xizmatlarni kengaytirish orqali yosh avlod va chekka hududlar aholisini ham jalb eta oladi. Bu esa nafaqat moliyaviy inklyuziyani oshiradi, balki barqaror va ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli moliya tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Islom moliyasi xizmatlarini tijorat banklari amaliyotiga tatbiq etish O‘zbekiston moliyaviy tizimini diversifikatsiyalash, aholining diniy va axloqiy qadriyatlariga mos xizmatlar taklif qilish, shuningdek, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish uchun muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, murabaha, ijara, mudaraba, musharaka va sukuk kabi shariatga asoslangan moliyaviy vositalar bozor ishtirokchilari orasida tobora ommalashib bormoqda. Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishda huquqiy-institutsional baza, mutaxassislar salohiyati va raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali Islom moliyasi xizmatlarining barqaror va samarali faoliyat yuritishiga zamin yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduraxmanova, G.G. (2021). Islom moliyasi xizmatlarini O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali.
2. Mamatqulov, B.B. (2023). Islomiy moliyalashtirish vositalarining tijorat banklarida qo‘llanilishi. Bank ishi, №2, 48–56.
3. Ibragimova, Z.R. (2020). Tijorat banklari faoliyatida halal moliyaviy xizmatlarning ahamiyati. Moliyaviy tahlil jurnali, №4, 33–39.
4. Usmanov, R.R. (2019). Исламское финансирование в России: проблемы и перспективы. Журнал финансового права, №6, 58–65.
5. Karimov, A.A. (2022). Islom moliyasi vositalari orqali kichik biznesni moliyalashtirishning afzalliklari. O‘zbekiston bank tizimi sharhi, №3, 22–28.

6. Habib Ahmed (2018). Shari'ah Governance in Islamic Financial Institutions: Recent Developments and Remaining Challenges. *Islamic Economic Studies*, 26(1), 1–30.
7. M. Kabir Hassan (2020). A Theory of Islamic Finance: Risk-Sharing, Profit and Loss, and Financial Inclusion. *Journal of Islamic Monetary Economics and Finance*, 6(1), 5–25.
8. Volker Nienhaus (2017). Islamic Finance in Europe: Trends and Prospects. *European Financial Review*, April 2017, 40–46.
9. Sayfulin, R. (2021). Qozog‘istonda Islom bankchiligi: institutsional rivojlanish yo‘nalishlari. Al-Farabi nomidagi Qozog‘iston Milliy Universiteti jurnali, №1(97), 73–80.
10. Nurul Huda (2019). Digital Transformation in Islamic Banking: Malaysian Experience. *International Journal of Islamic Business*, 4(2), 112–124.
11. Rodney Wilson (2021). The Legal and Institutional Environment for Islamic Finance in the UK and Europe. *Journal of Banking Regulation*, 22(3), 176–190.
12. Umar A. Oseni (2023). Islamic Financial Contracts: Standardization and Shari‘ah Compliance. SSRN Electronic Journal. <https://doi.org/10.2139/ssrn.4993193>.
13. Hafas Furqani & M. Asmak Ab Rahman (2018). Development of Islamic Banking: A Comparative Analysis between Southeast Asia and the Middle East. *Journal of Islamic Finance*, 7(1), 14–28.
14. <https://bank.uz/>
15. <https://cbu.uz/>